



## ABDULLA AVLONIY HAYOTI VA IJODINI “CHARXPALAK” TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O’QITISH

Rustamov Qalandar Ravshan o‘g‘li

*TDPU talabasi*

**M.A.Omanova**

*Ilmiy rahbar: TDPU dotsent v.b., PhD*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada Abdulla Avloniy hayoti va ijodini, asarlarini o‘qitishning ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyati, o‘qitish metodlari haqida ma’lumotlar berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Abdulla Avloniy, hayoti, ijodi, o‘qitish, metod, usul, she’riyat, xulq, mumtoz, ta’limiy, axloqiy, tarbiyaviy.*

Abdulla Avloniy o‘zbek jadid adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo‘lib, XX asr ta’lim-tarbiya va taraqqiyotiga o‘ziga xos hissa qo’shgandir.

Farzand tarbiyasi shaxsiy masala emas, u davlat, jamiyat ahamiyatiga ega bo‘lgan buyuk ijtimoiy ishdир, u shu darajada buyuk ishki, Vatan istiqboli ham, millat taqdiri ham tarbiya bilan bog‘liq.

Avloniy so‘zlari bilan aytganda: “... tarbiya bizlar uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidur”. Abdulla Avloniy inson tarbiyasini bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan uch yo‘nalishga bo‘ladi: badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi va axloq tarbiyasi. Inson uchun, avvalo, badan salomat bo‘lmog‘i zarurdir, badan sog‘ bo‘lgandagina inson uchun zarur bo‘lgan boshqa amallarni singdirish mumkin.

Buning uchun ichkilik kabi inson badanini bevaqt zalolatga, tubanlikka olib boruvchi, salomatlikka zarar, “ba’zi harom, ba’zi makruh” narsalardan asrashi kerak. Bu esa Avloniy yozishicha, fikr tarbiyasi uchun zamin yaratadi. Fikr tarbiyasi farzandni komil inson darajasiga ko‘tarishda muhim omil hisoblanadi.

Bu vazifani amalga oshirishda asosiy mas’uliyat o‘qituvchi zimmasiga tushadi. Chunki muallim dars jarayonida o‘quvchilarni fikrlashga, har qanday voqeahodisaning mohiyatini chuqur idrok qilishga o‘rgatadi. Bu o‘rinda Abdulla Avldoniylar ta’lim va tarbiya birligiga alohida ahamiyat beradi. Inson aqliy faoliyatinnig ifodasi bo‘lmish fikr tarbiyasi orqaligina katta sharafga, barkamollikka erishadi, bu o‘rinda o‘qituvchining fikrlash doirasining kengligi, bilim saviyasinnig har jihatdan yuksakligi o‘quvchilari tarbiyasida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Fikrlash qobiliyatini rivojlantirish aql bilan ish tutishga olib keladi: o‘quvchilarni yaxshi xulqlar bilan yomon xulqlarni farqlashga, komil inson uchun zarur bo‘lgan yaxshi xulqlarni egallashga, insonni zalolatga yetaklovchi yomon xulqlardan uzoq bo‘lishga o‘rgatadi.



Abdulla Avloniy asarning “Yaxshi xulqlar” bobida fatonat, diyonat, islomiyat, nazorat, g’ayrat, riyozat, qanoat shijoat, ilm, sabr, hilm, intizom, miqyosi nafs, vijdon, vatanni sevmoq, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok va zako, hifzi lison, iqtisod, viqor, xavf va rijo, itoat, xayrixohlik, munislik, sadoqat, muhabbat, afv haqida atroflicha fikr yuritadi, o’z qarashlarini dalillash uchun Qur’oni karim oyatlaridan, hadisi sharifdan namunalar, ulug’ mutafakkirlar Aflatun, Arastu, Suqrot, Buqrot, ibn Sino, Mavlono Rumsiy, Shayx Sa’diy, Mirzo Bedil fikrlarini keltiradi.

Darsda talabalarning faolligini oshirish uchun interfaol usullar, organayzerlardan foydalaniladi. Ta’lim jarayonida interfaol usullardan foydalanish, eng avvalo, talabalarga tayyor bilimlarni berishni emas, balki ularga fikr-mulohaza yuritish, atrofdagilar bilan muloqot qilish madaniyatini shakllantirish, mustaqil fikrga ega bo’lish va biror zarur bilimni mustaqil ravishda izlash va muammoning yechimini topish malakalarini berishni nazarda tutadi. Hozirgi kunda innovatsion texnologiyalar, interfaol uslublarning soni juda ko’payib ketgan.

Abdulla Avloniy hayoti va ijodini “Charxpak” texnologiyasi asosida tushuntirish mumkin.



Ushbu texnologiya talabalarni o’tilgan mavzularni yodga olishga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to’g’ri javob berishga va o’z-o’zini baholashga o’rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o’qituvchi tomonidan barcha talabalarning egallagan bilimlarini baholashga qaratilgan.

Texnologiyaning maqsadi: talabalarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o’z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o’zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishlashga, boshqalar fikriga hurmat bilan karashga, ko’p fikrlardan keraklisini tanlab olishga o’rgatish.

Mashg’ulotni o’tkazish tartibi:



- talabalarni (sharoitga qarab) guruhlarga ajratish;
- talaba (yoki o'quvchi)ni mashg'ulotni o'tkazishga qo'yilgan talablar va qoidalar bilan tanishtirish;
- tarqatma materiallarni guruh a'zolariga tarqatish.
- guruh a'zolari tomonidan yakka holda mustaqil ravishda tarqatma materiallardagi vazifalar bajariladi;
- har bir guruh a'zosi o'zi ishlagan tarqatma materialining o'ng burchagiga guruh raqamini yozadi, chap burchagiga esa o'zining biron-bir belgisini chizib qo'yadi;
- vazifa bajarilgan tarqatma materiallar boshqa guruhlarga «charxpalak aylanmasi» yo'nalishida almashtiriladi;
- yangi guruh a'zolari tomonidan berilgan materiallar o'rganiladi va o'zgartirishlar kiritiladi;
- jamoalar tomonidan o'rganilgan va o'zgartirishlar kiritilgan materiallar yana yuqorida eslatilgan yo'nalish bo'yicha guruhlararo almashtiriladi (ushbu jarayon guruhlar soniga qarab davom ettiriladi);
- materiallarni oxirgi almashishdan so'ng har bir guruh va har bir guruh a'zosi o'zlari ilk bor to'ldirgan materiallarini (guruh raqami va o'zlari qo'ygan belgilari asosida) tanlab oladilar;
- har bir guruh a'zosining o'zlari belgilagan javoblariga boshqa guruh a'zolarining tuzatishlarini taqqoslaydilar va tahlil qiladilar;
- o'kituvchining tarqatma materialda berilgan vazifalarini o'qiydi va jamoa bilan birgalikda to'g'ri javoblarni belgilaydi;
- har bir talaba (yoki o'quvchi) to'g'ri javob bilan belgilangan javoblar farqlarini aniqlaydilar, kerakli ballni to'playdilar va o'z-o'zini baholaydilar.
- talabalar o'z baholari yoki ballarini belgilab olishgach, o'qituvchi vazifa bajarilgan qog'ozlarni yig'ib oladi va baho (ballar)ni guruh jurnaliga ko'chirib qo'yadi.

Texnologiya o'quv mashg'ulotlarining barcha turlarida dars boshlanishi yoki dars oxirida yoki o'quv predmetining biron bir bo'limi tugallanganda, o'tilgan mavzularni talaba(yoki o'quvchi)lar tomonidan o'zlashtirganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o'tkazish uchun mo'ljallangan. Ushbu texnologiyani mashg'ulot jarayonida yoki uning bir qismida yakka, kichik guruh va jamoa shaklida tashkil etish mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: 2008.
2. Tolipov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiylasoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – B.261.



3. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2020.